

SHAXS FENOMENINING ILMIY KONSEPSIYALAR TAHLILI

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Xudoyberdiyev Rashid Zokir o'g'li

gmail: xudoyberdiyevrashid077@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisdá shaxs fenomenining ilmiy-nazariy mazmuni hamda uning falsafa, sotsiologiya, psixologiya va tarix fanlaridagi talqinlari tahlil qilinadi. Shaxs fenomenining shakllanishiga oid klassik va zamonaviy ilmiy konsepsiyalar qiyosiy yondashuv asosida yoritilib, buyuk shaxslar nazariyasi, ijtimoiy muhit va individual omillarning o'zaro ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, shaxsning jamiyat taraqqiyoti, tarixiy jarayonlar va ma'naviy-madaniy rivojlanishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida baholanadi. Tadqiqot natijasida shaxs fenomenini kompleks va fanlararo yondashuv asosida o'rganishning ilmiy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: shaxs fenomeni, ilmiy konsepsiya, buyuk shaxs nazariyasi, shaxs rivojlanishi, tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy muhit, individual omil, falsafiy yondashuv, sotsiologik konsepsiya, psixologik nazariya, ma'naviy taraqqiyot, fanlararo tadqiqot.

Abstract This thesis examines the scientific and theoretical essence of the phenomenon of personality and its interpretations in philosophy, sociology, psychology, and history. It comparatively analyzes classical and contemporary scientific concepts concerning the formation of personality, highlighting the interrelationship between the Great Person Theory, social environment, and



individual factors. Furthermore, the study evaluates the role of personality in social development, historical processes, and spiritual-cultural progress based on scientific sources. The findings substantiate the scientific significance of studying the phenomenon of personality through a comprehensive interdisciplinary approach.

Keywords: personality phenomenon, scientific concept, Great Person Theory, personality development, historical development, social environment, individual factor, philosophical approach, sociological concept, psychological theory, spiritual development, interdisciplinary research.

Аннотация В данной работе анализируются научно-теоретическая сущность феномена личности и его интерпретации в философии, социологии, психологии и истории. На основе сравнительного подхода рассматриваются классические и современные научные концепции формирования личности, раскрывается взаимосвязь теории великой личности, социальной среды и индивидуальных факторов. Кроме того, на основе научных источников оценивается роль личности в общественном развитии, исторических процессах и духовно-культурном прогрессе. Результаты исследования обосновывают научную значимость комплексного междисциплинарного изучения феномена личности.

Ключевые слова: феномен личности, научная концепция, теория великой личности, развитие личности, историческое развитие, социальная среда, индивидуальный фактор, философский подход, социологическая



концепция, психологическая теория, духовное развитие,
междисциплинарное исследование.

Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy-madaniy va ma'rifiy taraqqiyotning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, ayniqsa, ushbu jarayonlarda buyuk shaxslarning o'rni va rolini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Har qanday jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar, balki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar faoliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan buyuk shaxslar jamiyat hayotida yangi g'oyalar, ilmiy qarashlar va ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish orqali insoniyat taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Mazkur masalani chuqur tadqiq etish tarixiy jarayonlarning ichki mohiyatini anglash hamda bugungi taraqqiyotning nazariy asoslarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

"Fenomen" (yunoncha *phainomenon* – "namoyon bo'luvchi", "ko'rinadigan hodisa") falsafa va ijtimoiy fanlarda muayyan voqelikning inson ongida namoyon bo'lish shakli hamda ilmiy kuzatish va tahlil obyekti sifatida talqin etiladi. Falsafiy adabiyotlarda fenomen tushunchasi oddiy hodisadan farqli ravishda o'zida murakkab ichki mazmun, tarixiy rivojlanish qonuniyatlari va ijtimoiy ahamiyatni mujassam etgan voqelikni anglatadi. Shu bois fenomen faqat kuzatiladigan hodisa emas, balki ilmiy izoh va konseptual tahlilni talab qiladigan murakkab ijtimoiy-madaniy jarayondir.



Buyuk shaxs fenomeni deganda esa tarixiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, o'zining ilmiy, siyosiy, harbiy, ma'naviy yoki madaniy faoliyati bilan jamiyat rivojida burilish yasagan shaxslarning shakllanishi, faoliyati va tarixdagi o'rnini belgilovchi omillar majmui tushuniladi. Ushbu fenomen faqat shaxsning individual iste'dodi yoki salohiyati bilan emas, balki u yashagan tarixiy davr, ijtimoiy muhit, sivilizatsion taraqqiyot, milliy qadriyatlar hamda ma'naviy omillarning o'zaro uyg'unligi bilan tavsiflanadi. Aynan shu jihat buyuk shaxs fenomenini tarixshunoslik, falsafa, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlarining kompleks tadqiqot obyektiga aylantiradi

Buyuk shaxslar fenomenini o'rganish tarix falsafasi, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va tarixshunoslikning tutash nuqtalarida shakllangan murakkab ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Mazkur muammo yuzasidan turli davrlarda F. Nitsshe, Plutarx, P.K. Grechko, E. Tryolch, I.A. Gobozov kabi olimlar tomonidan turli ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ularning ilmiy qarashlari buyuk shaxslarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tarixiy qonuniyatlar, ijtimoiy muhit va shaxsiy fazilatlar uyg'unligi asosida izohlashga xizmat qiladi.

Mazkur tezisning maqsadi buyuk shaxslar fenomenini tarixiy-madaniy va ma'rifiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ilmiy konsepsiyalar asosida tahlil qilish, shuningdek, buyuk shaxslarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi determinantlarni aniqlashdan iborat.

Tarixiy-madaniy taraqqiyot murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni faqat bitta ilmiy yondashuv orqali izohlash mumkin emas. Shu bois mazkur fenomenni o'rganishda tarixiylik, retrofalsafiy, gnoseologik, teomifologik, sivilizatsiyaviy, psixologik hamda etnomadaniy konsepsiyalar o'zaro uyg'un holda



qo'llanilishi zarur. Har bir konsepsiya buyuk shaxsning shakllanishi va tarixiy jarayondagi o'rnini turli nuqtai nazardan ochib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, buyuk shaxslarning tarix sahnasiga chiqishi ichki va tashqi determinantlarning uzviy uyg'unligi bilan izohlanadi. Ichki determinantlarga shaxsning iroda kuchi, maqsad sari intilishi, bilimga chanqoqligi, ijodiy salohiyati va yetakchilik fazilatlar kiradi. Tashqi determinantlar esa jamiyat ehtiyojlari, tarixiy sharoit, milliy manfaatlar, ijtimoiy muhit hamda sivilizatsion taraqqiyot bilan belgilanadi. Mazkur omillar uyg'unlashgan taqdirdagina buyuk shaxs tarixiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsata oladi.

Tarixiylik konsepsiyasi buyuk shaxslarni ular yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv tarixiy voqealarni sabab-oqibat munosabatlari asosida tahlil qilish imkonini beradi. Retrofalsafiy konsepsiya esa tarixiy-falsafiy merosni bugungi ilmiy muammolarni izohlash vositasi sifatida talqin qiladi. Shu sababli Suqrot, Aflotun, Forobiy, Konfutsiy, Nitsshe kabi mutafakkirlarning qarashlari bugungi ilmiy izlanishlarda metodologik manba vazifasini bajaradi.

Gnoseologik konsepsiya buyuk shaxslarning ilmiy tafakkur va bilish jarayonidagi o'rnini yoritadi. Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Dekart, Bekon, Gegel va boshqa mutafakkirlarning ilmiy faoliyati insoniyat tafakkurining rivojlanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan. Aynan ilmiy izlanish va bilishga intilish buyuk shaxslarni tarix sahnasiga olib chiqqan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Teomifologik konsepsiya diniy va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan buyuk shaxslar faoliyatini o'rganadi. Konfutsiy, Budda, Bahouddin Naqshband,



Ahmad Yassaviy singari ulug' zotlarning faoliyati jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Ushbu konsepsiya diniy-ma'rifiy merosning inson kamolotidagi o'rnini ilmiy nuqtai nazardan yoritadi.

Sivilizatsiyaviy yondashuv buyuk shaxslarni ular yashagan davr sivilizatsiyasi bilan bog'liq holda baholaydi. Har qanday buyuk kashfiyot yoki ilmiy g'oya muayyan sivilizatsion muhit mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birga, etnomadaniy konsepsiya milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy muhitning buyuk shaxs shakllanishidagi rolini asoslaydi. Psixologik yondashuv esa buyuk shaxslarning xarakteri, motivatsiyasi va ruhiy dunyosini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Mazkur konsepsiyalar birgalikda buyuk shaxs fenomenini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Buyuk shaxslar fenomenini ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish tarixiy-madaniy va ma'rifiy taraqqiyot qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, buyuk shaxslar jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lish bilan birga, uning rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatuvchi kuch ham hisoblanadi. Tarixiylik, gnoseologik, retrofalsafiy, teomifologik, sivilizatsiyaviy, psixologik va etnomadaniy konsepsiyalarning o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi buyuk shaxs fenomenining ilmiy mohiyatini yanada to'liq ochib beradi. Mazkur yondashuv zamonaviy tarixshunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlarini yangi metodologik asoslar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Нитсше Ф. Сочинения в двух томах. Том 1. – Москва: Мисл



2. Трёльч Э. Историзм и его проблемы. – Москва: ТЕИС, 1994. С.22-26;
 Гобозов И.А. Введение в философию истории. – Москва: ТЕИС, 1999.
 С.181: Гречко П.К. Концептуальные модели истории. – Москва:
 ЛОГОС, 1995. С. 12-17.
3. Трёльч Э. Историзм и его проблемы. – Москва: ТЕИС, 1994. С.22-26;
 Гобозов И.А. Введение в философию истории. – Москва: ТЕИС, 1999.
 С.181: Гречко П.К. Концептуальные модели истории. – Москва:
 ЛОГОС, 1995. С. 12-17.
4. Плутарх. Сочинения. – Москва: Художественная литература, 1983. С.
 14
5. Алимасов В., Ходжаева Б. Тарихий шахсларнинг ижтимоий-маънавий
 тараққиётдаги ўрни. -Тошкент: Фан ва технологиялар, 2018. 24 б.).
6. Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. – Тошкент: Янги аср
 авлоди, 2007. 7 б.